

РЕЗЮМЕ. В данной статье на основе географического анализа рассматривается влияние рельефа и структуры земной поверхности Южного Узбекистана на процессы урбанизации и развитие городов. Выявлены особенности влияния форм рельефа, природных ресурсов, геоморфологических и гидрогеологических факторов на размещение городов, их функциональное развитие, архитектурно-инженерные проекты и агломерационные процессы. Оценен урбанистический потенциал региона на основе природно-географического районирования.

SUMMARY. This article analyzes the influence of the surface structure (relief) of Southern Uzbekistan on urbanization processes and the development of cities based on geographical research. The study identifies how landforms, natural resources, geomorphological and hydrogeological factors affect the spatial distribution of cities, their functional growth, architectural-engineering design, and agglomeration processes. The urban potential of the region is evaluated through natural-geographic zoning.

QASHQADARYO VILOYATI UMUMTA'LIM MUASSASALARI VA ULARNING INFRATUZILMASI HUDUDYIY JIHATLARI

A.U.Nurmatov – *o'qituvchi*

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Qashqadaryo viloyati, umumta'lim muassasalari, infratuzilma, hududiy rivojlanish, demografik omillar, ta'lim geografiyasi, maktablar tarmog'i, hududiy nomutanosiblik, ijtimoiy infratuzilma, ta'lim tizimi.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, общеобразовательные учреждения, инфраструктура, территориальное развитие, демографические факторы, география образования, сеть школ, территориальное неравенство, социальная инфраструктура, система образования.

Key words: Kashkadarya region, General Educational Institutions, Infrastructure, territorial development, demographic factors, educational geography, school network, territorial imbalance, social infrastructure, educational system.

Kirish. XXI asrda jahon hamjamiyati barqaror taraqqiyotning ajralmas omili sifatida sifatli ta'lim tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da har bir inson uchun inklyuziv va sifatli ta'limni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu yo'nalishda infratuzilmaviy sharoitlarning mavjudligi muhim o'rin tutadi. Ayni paytda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'z hududlarida maktablar tarmog'ini modernizatsiya qilish, ta'lim maskanlarini teng taqsimlash, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda umumta'lim muassasalari sonini oshirish, ularni zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda [1:11]. Xususan, Qashqadaryo viloyatida aholining soni ortib borayotgani sababli ta'limga bo'lgan talab ham sezilarli darajada kuchaygan. Viloyatda yangi maktablar qurilishi, mavjudlarining rekonstruksiya qilinishi, o'quvchilarning qulay muhitda bilim olishini ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim tuman va shaharlar kesimida maktablar sonining va ularning infratuzilmasining hududiy nomutanosibligi hali-hanuz dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Mazkur holat, ya'ni umumta'lim muassasalarining hududiy jihatdan nomutanosib joylashuvi, ularning infratuzilmaviy darajasidagi tafovutlar, maktab binolarining jismoniy va texnik holati masalalari Qashqadaryo viloyati miqyosida chuqur tahlil qilinishini talab etadi. Aynan shu jihatlar maqola mavzusining ilmiy va amaliy dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot natijalari asosida mavjud holatning tahlili, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha hududiy rivojlanish konsepsiyasiga mos takliflar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifati va hududlararo ijtimoiy tenglikni ta'minlash yo'lida muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Umumta'lim muassasalarining hududiy taqsimoti va infratuzilmasini takomillashtirish masalasi

jahon miqyosida ko'plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, A.G.Granberg – iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy rivojlanish muammolarini tahlil qilgan holda, umumta'lim infratuzilmasining mintaqaviy farqlanishi davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinishi zarurligini ilgari suradi. U ta'lim maskanlari hududiy nomutanosibligi hududlararo ijtimoiy tengsizlikka olib kelishini qayd etadi. N.N.Baranskiy – geografik rayonlashtirish nazariyasining asoschilaridan biri sifatida, ijtimoiy infratuzilmaning, jumladan, maktablarning aholi punktlarida to'g'ri taqsimlanishi hududiy rejalashtirishning asosiy komponenti bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. U, ayniqsa, qishloq joylarda ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish davlatning ustuvor vazifasi bo'lishi kerakligini urg'ulaydi. V.P.Maksakovskiy – ijtimoiy geografiya va hududiy taraqqiyot muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ta'lim tizimining rivojlanishi bilan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratadi [2, 10]. U maktablarning sifati va mavjudligi bevosita hududdagi inson kapitalini shakllantirish va yashash sifatini yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlagan.

Xalqaro miqyosda maktab infratuzilmasiga qo'yiladigan talablar ta'lim sifatini ta'minlash va o'quvchilar hamda o'qituvchilarning xavfsizligi, qulayligi uchun asosiy mezon hisoblanadi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va UNESCO tavsiyalarida ta'lim muassasalarining jismoniy holati, sanitariya-gigiyena sharoitlari, energiya samaradorligi va texnologik jihozlanishi bo'yicha aniq standartlar belgilangan [3, 7]. Maktab binolari zamonaviy qurilish texnologiyalari asosida barqaror va ekologik toza materiallardan foydalanilgan holda bunyod etilishi, sinfxonalar yoritilishi va ventilyatsiyasi, sport va madaniy dam olish zonalarini mavjudligi talab qilinadi. Shuningdek, maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan jihozlanish va imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratilishi ham muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan siyosatida maktab infratuzilmasini yaxshilashga katta e'tibor qaratilgan. Milliy standartlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida maktab

binolari xavfsizlik, gigiyena, yoritish, isitish tizimlari va zamonaviy o'quv-uskunalar bilan ta'minlanishi shart qilib qo'yilgan [11, 4, 8]. O'zbekiston sharoitida ayniqsa qishloq hududlarida maktab infratuzilmasini rivojlantirish, yangi binolar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, o'quvchilar uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, maktablarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirish ham davlat tomonidan ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu talablar maktab infratuzilmasining sifatini oshirish va ta'limning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2010/2011-o'quv yilida Qashqadaryo viloyatida jami 1116 ta umumta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023/2024-o'quv yiliga kelib 1256 taga yetgan (jadval), ya'ni 13 yilda 140 ta yangi maktab tashkil etilgan yoki qayta tiklangan [6]. Bu esa viloyatda aholining soni ortib borayotgani, ayniqsa yoshlarga oid demografik bosim kuchayib borayotgani va bu bosim ta'lim infrastukturasiga bevosita ta'sir etayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi yillarda keskin o'sish kuzatiladi, bu holat respublikada maktablar sonini ko'paytirish siyosati va ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar samarasidir.

Qarshi shahrida 2010/2011-o'quv yilida 51 ta maktab mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023/2024-yilga kelib ularning soni 69 taga yetgan, ya'ni 18 ta yangi maktab tashkil etilgan. Bu shaharda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi zichligining ortishi va yangi turar-joy massivlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Shuningdek, Qarshi shahri viloyat markazi sifatida demografik migratsiyani ham qabul qilayotgan hududlardan biri sanaladi. Shahrisabz shahri bo'yicha esa faqat 2018/2019-yildan boshlab ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu yilda 26 ta maktab bo'lgan va 2023/2024-yilda bu ko'rsatkich 27 taga yetgan – ya'ni aholi soni va maktablar soni o'rtasida nisbiy barqarorlik mavjud.

Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari soni

	2010/ 2011	2015/ 2016	2020 / 2021	2021/ 2022	2022 / 2023	2023/ 2024
Qashqadaryo viloyati	1116	1124	1155	1175	1220	1256
Qarshi sh.	51	50	54	57	59	69
Shahrisabz sh.	-	-	26	26	27	27
<i>Tumanlar</i>						
G'uzor	79	79	78	78	79	83
Dehqonobod	89	89	93	96	101	104
Qamashi	87	89	89	95	95	98
Qarshi	64	67	69	70	70	71
Koson	96	99	102	102	102	102
Kitob	92	92	94	95	98	99
Mirishkor	39	39	39	41	43	43
Muborak	33	32	33	33	34	35
Nishon	38	38	38	42	43	48
Kasbi	58	59	61	61	61	62
Ko'kdala	-	-	-	-	97	98
Chiroqchi	176	178	192	192	124	127
Shahrisabz	111	110	85	85	85	87
Yakkabog'	103	103	102	102	102	103

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tumanlar kesimida esa sezilarli tafovutlar mavjud. Masalan, Dehqonobod tumanida maktablar soni 2010-

yildagi 89 tadan 2023-yilda 104 taga yetib, 15 ta ortgan. Bu eng yuqori o'sishlardan biri bo'lib, tuman aholisi tarqoq joylashgan, maktablar ko'proq kichik aholi punktlarida barpo etilgan bo'lishi mumkin. Qamashi, Kasbi, Kitob va G'uzor tumanlarida ham nisbatan barqaror o'sish kuzatilgan. Jumladan, Qamashida 87 tadan 98 taga, Kitobda 92 tadan 99 taga, Kasbida 58 tadan 62 taga yetgan. Bu hududlarda ham demografik barqarorlik, maktablarning saqlanishi va yangilarining ochilishi qayd etiladi.

Ayniqsa e'tiborni tortadigan tuman bu Ko'kdala bo'lib, 2022/2023-yildan boshlab statistikada ilk bor alohida tuman sifatida ko'rsatilgan va maktablar soni 97 tadan 98 taga oshgan. Bu tuman yaqin yillarda ajratilgan yoki qayta tashkil etilgan hudud bo'lishi mumkin. Chiroqchi tumanida esa juda g'alati dinamikani kuzatish mumkin: 2019/2020-o'quv yilida 183 ta maktab bo'lgan bo'lsa, 2020/2021-yildan boshlab keskin pasayish (192 tadan 124 taga) kuzatiladi. Bu holat tuman chegaralari qayta ko'rib chiqilgani, ayrim hududlarning boshqa tumanga birlashtirilgani yoki statistik usuldagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shahrisabz tumanida esa 2017/2018-yildan boshlab 110 ta maktabdan 85 taga tushish holati kuzatiladi va bu ko'rsatkich keyingi yillarda deyarli o'zgarmaydi. Bu tuman bo'yicha hududiy bo'linmalar yoki maktablarning bir qismi boshqa yurisdiksiya ostiga o'tkazilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Yana bir barqaror tuman bu Koson bo'lib, 96 tadan 102 taga oshgan va 2015-yildan buyon maktablar soni deyarli o'zgarmagan, bu hududda infratuzilmaning yetarli darajada shakllanganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida umumta'lim muassasalari soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda, lekin bu o'sish tumanlar va shaharlar bo'yicha bir xilda emas. Ayrim hududlarda maktablar soni keskin oshgani holda, ba'zilarida pasayish yoki barqarorlik kuzatiladi. Bu holat aholi zichligi, geografik joylashuv, iqtisodiy faoliyat, migratsiya darajasi va hududiy boshqaruvdagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Shu sababli ta'lim infratuzilmasini yanada muvozanatli rivojlantirish, maktab tarmog'ini hududiy ehtiyojlar asosida rejalashtirish zarurati tug'iladi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatining umumta'lim muassasalari hududiy taqsimoti viloyatning ijtimoiy-geografik xususiyatlari, aholining zichligi va infratuzilma darajasi bilan bevosita bog'liq. Tuman va shaharlar bo'yicha ta'lim muassasalari soni va ularning turi farq qilishi, viloyatdagi ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab va mavjud resurslarga moslashganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, tog' va qishloq hududlarida maktablar sonining kamayishi, o'quvchilar sonining markazlashuvi va transport muammolari ta'lim tizimining hududiy notekisligini aks ettiradi.

Viloyatdagi umumta'lim muassasalarining infratuzilmasi – bino, o'quv jihozlari, sport va madaniy obyektlar – ham hududiy jihatdan farqlanadi. Markaziy shaharlar va yirik tumanlarda zamonaviy infratuzilma yaxshi rivojlangan bo'lsa, chekka hududlarda bu borada muammolar mavjud. Bu esa ta'lim sifatiga, o'quvchilarning umumiy rivojlanish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish uchun hududiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan investitsiya va davlat siyosati muhim ahamiyatga ega.

Natijada, Qashqadaryo viloyatida ta'lim tizimini yanada barqaror va sifatli qilish uchun umumta'lim muassasalari

hududiy taqsimoti va infratuzilmasining hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda o'quvchilar xususiyatlari chuqur tahlil qilinib, ularni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlar yaratish ta'lim sifatining oshishiga bo'yicha kompleks choralar ko'rilishi lozim. Xususan, xizmat qiladi va viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy chekka va kam rivojlangan hududlarga e'tibor qaratish, barqarorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-son qarori.
2. Nurmatov A.U. Zamonaviy ta'lim infratuzilmasini shakllantirishning ba'zi masalalari. "Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: Raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi. 2024-yil. 25-26-oktyabr. 313-317-b.
3. Процесс в области питьевого водоснабжения, санитарии и гигиены в школах. <file:///C:/Users/ATM9119/Downloads/JMP-2020-WASH-schools-ru.pdf>
4. Nurmatov A.U. Qishloq joylari barqaror rivojlanishini baholashning uslubiy yondashuvlari. Yangi O'zbekistonda Iqtisodiy va Ijtimoiy Geografiya Fani: Rivojlanish Muammolari va Istiqbollari. –Toshkent: 2023-yil 19-20-may.169-172-b.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz
6. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi axborot byulleteni, 2024.
7. UNESCO. Digital Learning and Education Infrastructure: Global Trends. Paris: UNESCO Publishing. 2021.
8. Rasulov M., Ergashev S. "Hududiy rivojlanishda ta'lim infratuzilmasining roli", Ilmiy-amaliy jurnal, 2022, №3.
9. Fayzullayev M.A., Xujaqulov S.U. A.U.Nurmatov. Economic Geographical Characteristics Of The Development Of Industrial Networks Of Kashadarya Region. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Vol 2, Issue 4. Paris, France 19 th April 2023. -P. 125-134
10. Панасюк В. П. Школа и качество: выбор будущего. СПб.: КАРО, 2013. –С. 384.
11. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>

REZYUME. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatidagi umumta'lim muassasalari soni, ularning hududiy taqsimoti va infratuzilmasining rivojlanish holati geografik tahlil qilinadi. Tuman va shaharlar kesimidagi maktablar sonidagi o'zgarishlar, ularning demografik omillar bilan bog'liqligi, mavjud infratuzilma imkoniyatlari hamda ta'limga bo'lgan hududiy talablar asosida baholanadi. Statistik ma'lumotlar asosida viloyatdagi umumta'lim muassasalarining soni yildan-yilga ortib borayotganini, biroq bu o'sish hududlar kesimida bir xilda kechmayotganini ko'rsatib beradi. Shuningdek, maqolada maktab infratuzilmasining sifati, binolarning jismoniy holati, zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlanganlik darajasi va ularning hududiy tafovutlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida viloyat bo'yicha umumta'lim tizimining hududiy muvozanatini ta'minlash va infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье будет проведен географический анализ количества общеобразовательных учреждений в Кашкадарьинской области, их территориального распределения и состояния развития инфраструктуры. Изменения в количестве школ в разрезе районов и городов оцениваются на основе их связи с демографическими факторами, возможностями существующей инфраструктуры и территориальными требованиями к образованию. На основании статистических данных видно, что количество общеобразовательных учреждений в области увеличивается из года в год, однако это увеличение не происходит равномерно в разрезе регионов. В статье также анализируется качество школьной инфраструктуры, физическое состояние зданий, уровень оснащенности современным учебным оборудованием и их территориальные различия. По результатам исследования даны практические рекомендации по обеспечению территориального баланса системы общего образования по регионам и совершенствованию инфраструктуры.

SUMMARY. This article will provide a geographical analysis of the number of public educational institutions in the Kashkadarya region, their territorial distribution and the state of development of infrastructure. Changes in the number of schools in the district and urban cross-section are assessed based on their correlation with demographic factors, available infrastructure capabilities, and territorial requirements for education. Based on statistics, the number of public institutions in the region is increasing from year to year, but this increase is not going uniformly in the cross-section of the regions. The article also analyzes the quality of the school infrastructure, the physical condition of the premises, the level of provision of modern educational equipment and their territorial differences. Based on the results of the study, practical recommendations were made to ensure the territorial balance of the general education system in the region and to improve infrastructure.

O'ZBEKISTONDA SAKRAL GEOGRAFIYANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

I.B.Safarov – o'qituvchi

Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: sakral geografiya, madaniyat, turizm, diniy obidalar, tarixiy yodgorliklar, turizm salohiyati, xalqaro hamkorlik.

Ключевые слова: сакральная география, культура, туризм, религиозные памятники, исторические памятники, туристический потенциал, международное сотрудничество.

Key words: sacred geography, culture, tourism, religious monuments, historical monuments, tourism potential, international cooperation.

Kirish. Sakral geografiya – bu diniy, madaniy va xiy va madaniy merosi bilan, butun dunyo uchun qimmatli tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obidalar va joylarni sakral obidalar manbaidir. Mamlakatda ko'plab me'moriy o'rganadigan fan sohasidir. O'zbekiston, o'zining boy tari-yodgorliklar, masjidlar, madrasa va maqbaralar mavjud